

FARG'ONA VILOYATI XALQ  
TA'LIMI BOSHQARMASI  
BESHARIQ TUMAN  
XALQ TA'LIMI BO'LIMI

150301,Beshariq tumani,Do'stlik ko'chasi 8-uy  
Tel/faks.: (73) 612-12-21  
e-mail: beshariq\_txb@xtv.uz



FERGHANA REGIONAL  
DEPARTMENT OF PUBLIC  
EDUCATION BESHARIK DISTRICT  
PUBLIC EDUCATION  
DEPARTMENT

8, Do'stlik street, Besharik district, 150301  
Phone/fax.: (73) 612-12-21  
e-mail: beshariq\_txb@xtv.uz

25«8»2022 yil.

232-11-153-XT/2022-son

## PUDRAT SHARTNOMASI № 38509

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Beshariq tuman xalq ta'lifi bo'limi** nomidan rahbar **V.Abdurahmonov** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi **“Me'mor pardoz”** x/k (keyingi o'rinnarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar **S.Jo'raev** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1.«Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Beshariq tuman xalq ta'lifi bo'limi tasarrufidagi 25-umumta'lim muktabi binosini joriy ta'mirlash ishlarni loyiha-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib olib, to'lovlarni amalga oshiradi.

### 2. SHARTNOMA BAXOSI

2.1.Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda jami **99 690 000 (To'qson to'qqiz million olti yuz to'qson ming) QQSl** so'mni tashkil etadi

2.2.Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qushimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

### 3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiyligi summasini **30 %** miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» xisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlarni xajmiga qarab, avans mablag'larini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

#### **4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.**

- 4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to’lov amalga oshirilgan kundan boshlab 5 kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta’mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo’lgan ishlar 2022 yil 25 dekabr kuniga kadar to’liq yakunlanishi kerak.
- 4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me’yorlari talablariga muvofiq bo’lishini va sifatli bajarilishini ta’minlaydi.
- 4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muxofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

#### **5. TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

- 5.1.«Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta’mirlash ishlarini to’liq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.
- 5.2.«Buyurtmachi» ta’mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyihasmeta xujjalariiga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.
- 5.3.«Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta’mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar buyicha tuzilgan shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.
- 5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va **10** kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o’z mablag’i va o’z kuchi bilan **10** kun davomida bartaraf etiladi.

#### **6. JARIMALARNI QO’LLANILISHI.**

- 6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to’liq qoplaydi.
- 6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo’lgan ta’mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.5% miqdorida har bir muddati o’tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to’laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.3. «Pudratchi» tomonidan ta’mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to’lovlar o’z muddatida amalga oshirilmasa to’lanmagan summani 0.4% miqdorida har bir muddati o’tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to’laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o’tkazib berilmagan mablag’lar summasini 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.4. Jarimalar to’lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### **7. FORS-MAJOR XOLATLARI.**

- 7.1. Agar ushbu shartnoma bo’yicha majburiyatlar qisman yoki to’lik bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshka yengib bo’lmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

## 8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

### Tomonlar:

8.1. Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va’da qilish, ta’magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo‘lish xatti- harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

8.2. Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari boshqa. Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg‘alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg‘araz ko‘rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag‘batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti- harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta’minalashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma’lum qiladilar.

8.3. Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

## 8. QO‘SHIMCHA SHARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o‘zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo‘ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O‘zaro kelishilmasa **iqtisodiy sudi** va O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda xal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuviga asosan yoki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to‘lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnomani amal qilish muddati 2022 yil 25 dekabrgacha.

Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g‘aznachilik boshqarmasi (bo‘lim)dan ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

## 9. TOMONLARNI XUKUKIY MANZILI VA REKVIZITLARI

«Pudratchi»

“Me’mor pardoz” x/k

(yetkazib beruvchining (pudratchining) nomi)

Manzil: Beshariq tumani Ganbay MFY Vatan qishlog‘i

Tel./faks +99894-425-73-00

(h/v yoki shg‘h) 20208000900884580001

«Buyurtmachi»

Besharik tumani xalq ta’lim bo‘limi

(buyurtmachi nomi)

Manzil: Beshariq tumani Dustlik kuchasi № 8

Tel./faks 61-21-245

shg‘h\* 100022860302157092100075060

Bank nomi Universal bank

MFO: 00973 STIR: 305546075

IFUT

Tashkilotning STIRi 200155197

OKONX 92100

G‘aznachilik bo‘linmasining nomi:

Besharik tuman buyicha Gaznachilik bulinmasi

YAG‘H 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar

Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi

(HKKM)

MFO:00014

G‘aznachilik bo‘linmasining STIRi: 201122919

Rahbar



S. Jo‘raev

rahbari

V.Abduraxmonov

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.
Imzolovchi F.I.SH.	VOSIDJON ABDURAXMONOV RASULJONOVICH
Imzolangan sana	25 авг 2022 16:43
Hujjat kodi	<b>BQ28114557</b>
Hulosa kodi	<b>YO6301761605</b>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO'LIMI  
YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin vodiy ko'chasi, 46-uy  
Tel.: (998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz

25.08.2022 yil

Beshariq tuman  
Xalq ta'lim bo'lumi

**XULOSA**

(*Xalq ta'lim bo'lumining shartnoma loyihasiga*)

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** Qurilish ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**  
Beshariq tuman xalq ta'lim bo'lumi tomonidan 2022 yil 22 avgust kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

**4.Loyiha bo'yicha taklif:** Beshariq tuman xalq ta'lim bo'lumi hamda x/k "ME'MOR PARDOZ" xususiy korxonasi o'rtaida Xalq ta'limi bo'lumi tasarrufidagi 25-umumta'lim maktabi binosini joriy ta'mirlash ishlarini loyihasmeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish, qurilish va ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha № 38509-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Beshariq tuman xalq ta'lim bo'lumi binosini ta'mirlash xizmati (smeta ekspertiza xulosasiga asosan e'longa joylashtirilgan) O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari tugrisida"gi 684-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldaggi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'grisidagi qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika tovar hom-ashyo birjasining **xarid.uz** saytidagi xalq ta'lim bo'lumining shaxsiy kabineti orqali **131529**-lot raqami bilan 2022 yil 15 avgust kuni e'lon joylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga Beshariq tuman xalq ta'lim bo'limi 2022 yil 15 avgust kungi 2022 yilda ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish hamda tovarlar, ish, xizmatlarni bajarish maqsadidagi tanlov komissiyasining yig'ilish bayoni, **131529-lot** raqamli e'lon bo'yicha takliflar va bajaruvchining tadbirdorlik guvohnomalari ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

### XULOSA

Beshariq tuman xalq ta'lim bo'limi tomonidan taqdim etilgan shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.



**Markaz Bosh yuriskonsulti:**

**A.Farmonov**

1. Bu shartnoma, 131529-sonda qo'shilganda 2022-yilning 15 avgust kungi 2022 yilda ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish hamda tovarlar, ish, xizmatlarni bajarish maqsadidagi tanlov komissiyasining yig'ilish bayoni, **131529-lot** raqamli e'lon bo'yicha takliflar va bajaruvchining tadbirdorlik guvohnomalari ilova qilingan.

2. Tumani bajaruvchi Atabayev Shavkat, yana qayd qilinib, mablag'lar doimiyetan moliyalashtirish uchun 0% surʼatda, 10% surʼatda 10% surʼatda hujz oʻsishiga, qʼozʼaligiga, surʼatiga va xalq qadʼida amalga oshirish va qoldiq qopishiga qarab.

3. Tumani bajaruvchi loyiha niʼoshtishi 13. Maydan avvaliga markaz farmonidan qayd qilinib mablag'ni, shuningdek, surʼatni, hujz oʼsishiga, qʼozʼaligiga, surʼatiga, surʼatiga va xalq qadʼida amalga oshirish va qoldiq qopishiga qarab.

4. Ushbu shartnoma 13. Maydan avvaliga markaz farmonidan qayd qilinib mablag'ni, surʼatni, hujz oʼsishiga, qʼozʼaligiga, surʼatiga, surʼatiga va xalq qadʼida amalga oshirish va qoldiq qopishiga qarab.



# FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI FARMOYISHI

2022 - yil 1 - avgust

135-11-153-F/22

Beshariq tumani hokimligi

## Tuman Xalq ta'lifi bo'limiga mablag' ajratish to'g'risida

**O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28 va 126-moddalariga asosan,**

1.Beshariq tumani Xalq ta'lifi tasarrufidagi 25-umumta'lim maktabini joriy tamirlash harajatlari uchun tuman mahalliy budgetining 2022-yil II-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan 100,0 (yuz) mln.so'm mablag' tuman Xalq ta'lifi bo'limiga ajratilsin.

2.Tuman hokimligi Moliya bo'limi (X.Isroilov)ga ajratilgan mablag'lar doirasida moliyalashtirish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (B.Nishonov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3.Tuman hokimligi bosh hisobchisi (T.Matmusayev)ga mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag'ni, ishlab chiqilgan xarajatlar smetasiga muvofiq maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.

4.Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o'rribosari T.Samatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi

R.K.Jo'rayev



“ТАСДИҚЛАЙМАН”  
Бешариқ тумани Халқ таълими  
бўлими бошлиғи (комиссия раиси)

В.Абдурахмонов

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-табомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошисига қўра Бешариқ тумани халқ таълими бўлими тасарруфидаги 25-умумтаълим мактаби биноси иситиш тизимини жорий таъмирлаш лот №22110012131529 бўйича танлов комиссиясининг мухокама натижалари юзасидан

18 -СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил “19” август соат 09 00

Бешариқ шаҳри

Танлов комиссияси иштирокчилари:

В.Абдурахмонов

- Бўлим мудири комиссия раиси;

Х.Бойматов

- марказлашган молия-бухгалтерия хизмати бош ҳисобчиси, танлов комиссияси аъзоси;

А.Туранов

- марказлашган молия-бухгалтерия хизмати бош ҳисобчиси ўринбосари, танлов комиссияси аъзоси;

А.Абдурахманов

- марказлашган молия-бухгалтерия хизмати бош иқтисодчиси, танлов комиссияси аъзоси;

Д.Маликов

- маҳсус таъмирлаш-эксплуатация хизмати бошлиғи, танлов комиссияси аъзоси;

Инглиш кун тартибидаги кўриладиган масала;

2022-йилда etender.uzex.uz лот №22110012131529 рақами билан Бешариқ тумани халқ таълими бўлими тасарруфидаги 25-умумтаълим мактабини биноси иситиш тизимини жорий таъмирлаш учун 03.08.2022 йилдан 10.08.2022 йилгача бўлган вақтда порталга жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар 1. ME'MOR PARDOZ XK · 2. OLTIN VODIY KAPITAL QURILISH XK

Танлов 15.08.2022 йил куни танлов комиссияси азолари томонидан МЕ'MOR PARDOZ XK ғолиб деб топилди ва 15.08.2022 йил соат 12:05 да электрон баённома расмийлаштирилди ва шу пайтднигн ўзида 2 иш кунига мухокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш куни давомида хеч қандай эътиrozлар келиб тушмади ва маҳсус комиссия қарори билан МЕ'MOR PARDOZ XK билан шартнома тузишга қарор қилинди.

В.Абдурахмонов

Х.Бойматов

A.Туранов

А.Абдурахмонов

Д.Маликов